



HAYOT DAVOMIDA TA'LIM OLİSH: YANGI
PARADIGMALAR VA KUTILADIGAN NATIJALAR
FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

A.Q.Samyayev¹, J.A. Qodirov²

¹*SamVXTXQTMOHM o'qituvchisi,*

²*tadqiqotchi*

**GEOGRAFIYA DARSLARIDA KVEST TEXNOLOGIYALARINI
QO'LLASHNING AFZALLIKLARI**

Annotation: Ushbu maqolada xalq ta'lidi dagi islohatlar, interfaol metodlar, Kvest texnologiyasi, texnologiyaning darslarda qo'llashning afzalliklari haqida ma'lumotlar keltirilgan.

So'nggi yillarda yurtimizda ta'lim sohasida ko'plab o'zgarishlar, tom ma'nodagi islohatlar amalga oshirilmoqda. Viloyat va tumanlarda Prezident maktablari, ixtisoslashgan maktablar qurilib, faoliyat ko'rsatmoqda. Umumta'lim maktablari qaytadan ta'mirlanib, zamonaviy o'quv jihozlari bilan jihozlanmoqda. Ta'lim muassasalarida axborot olishning zamonaviy vositalari: kompyuterlar, Internet, interfaol doskalar va boshqalar keng qo'llanilib boshlandi. Bunday sharoitda ta'limda yangi yondashuvlarni faol qo'llash bugungi kunning asosiy vazifasidir. Bugungi kunda o'quv jarayonida barcha ishtirokchilardan foydalanish va ularning ijodiy qobiliyatlarini ro'yobga chiqarish, mavjud bilim va ko'nikmalarini amaliy faoliyatda qo'llay olish imkonini beradigan zamonaviy interfaol metodlardan foydalanish kundan-kunga ommalashib bormoqda.

Zamonaviy talablarga javob beradigan ta'lim texnologiyalariga Kvest-texnologiyalarini ham kiritish mumkin. "Kvest" so'zi ingliz tilidan olingan bo'lib - "izlamoq, qidiruv, sarguzasht" ma'nolarini anglatadi. O'tgan asrning 90-chi yillarda kompyuter texnologiyalari va ular bilan bog'liq turli xil o'yinlar hayotimizga kirib keldi. Kompyuter o'yinlari ayniqsa sarguzasht o'yin ("Djumanji" kabi,...) lari o'quvchi yoshlarni kundan-kunga o'ziga jalb qila boshladi. Maktablardagi odatiy



o‘tiladigan darslar ularni qiziqtirmay boshladi(bu holat O‘zbekistonda XX asrning boshlarida kuzatilgan) . Farbning rivojlangan davlatlarida o‘quvchi yoshlar soatlab vaqtini uy kompyuterlarida yoki Internet kafelaridagi kompyuterlar qoshida o‘tkazadigan bo‘ladi. Bu holat farb davlatlari uchun “fojea” edi.

Sunday bir davrda ,yani 1995 yilda San-Diego universiteti professorlari Berni Dodj va Tom March kompyuter o‘yinlari orqali o‘quvchilarni darslarga qisiqtirish taklifini berdi. Ular taklif etgan o‘yin “ kvest ”, keyinchalik “ Kvest texnologiyasi ” deb atala boshlandi .Shunday qilib, ta’lim jarayonini individuallashtirish, barcha ta’lim imkoniyatlaridan foydalanish va ta’lim ishtirokchilarining rivojlanishi va o‘z-o‘zini anglashi uchun eng yaxshi sharoitlarni yaratishga imkon beradigan nafaqat o‘quvchilar, balki o‘qituvchilar orasida ham tez sur’atlar bilan ommalashib borayotgan ta’lim kvesti yoki kvest texnologiyasi paydo bo‘ldi. Kvest texnologiyasidan foydalanib o‘tilgan darslar-bu kechagi zerikarli darslardan butunlay farq qilib, sinfdagi o‘quvchilarning dars mashg‘ulotlariga to‘liq sho‘ng‘ishga imkon beradi va darslarning juda jonli o‘tilishiga olib keladi.

Kvest texnologiyasining afzallik tomonlari quyidagilardan iborat:

- turli sarguzashtli o‘yinlar orqali o‘quvchini dars mashg‘ulotlariga qiziqtirish;
- o‘quvchini jamoa bo‘lib ishlashga o‘rgatish ;
- o‘yindagi turli jumboqlar orqali o‘quvchini muammoli vaziyatga tushurish va muammoni echishga o‘rgatish;
- dars mashg‘ulotlarida olgan nazariy bilimlarni amalda qo‘llay olishga o‘rgatish ;
- topshiriqlarni bajarish orqali mantiqiy fikrlashga o‘rgatish.

Geografiya darslarida Kvest texnologiyalaridan foydalanilsa darslar yanada qiziqarli o‘tiladi. Buning uchun dars beradigan o‘qituvchi tajribali bo‘lishi, kompyuterni yaxshi bilishi va mavzuga sarguzashtli o‘yinni bog‘lay olishi kerak. Quyida biz Kvest texnologiyasi asosida o‘tilgan geografiya darsidan namuna ko‘rsatamiz:

AQSH ning Gavayi shtatidagi yuqori sinf o‘quvchilaridan biri uyining tom qismida “ Xazinalar oroli ” nomli qadimiy qo‘lyozma topib oladi va ma’lumotlar bilan o‘rtoqlarini tanishtiradi. Qo‘lyozmada nomalum orol va uning xaritasi berilgan edi . Ular yozgi kanikul vaqtida “Santa-Mariya” yaxtasini ijara olib o‘sha orolga sayoxatga chiqishni rejalashtiradilar. O‘quvchilar sayoxatga uzoq vaqt va puxta tayyorgarlik ko‘rishadilar . Va nixoyat belgilangan kunda ular yo‘lga chiqishdilar.

1-Topshiriq:

O‘quvchilar Gavayi orollaridan (20⁰ sh.k,155⁰ g‘.u) janubga qarab suza boshladi. Ular ekvatorga kelganda yo‘nalishini sharqga qarab o‘zgartiradi va 0⁰ sh.k, 92⁰ g.u. dagi orolga kelib yaxtani to‘xtatadi. O‘quvchilar qo‘lyozmadagi xarita bilan hozirgi xaritani taqqoslab bu yer ekanligini aniqlashadi.

Topshiriqning echimi : O‘quvchilar berilgan ma’lumotlar va xaritadan foydalanib bu yer **Galapogos orollari** ekanligini aniqlaydi.

2-Topshiriq:



O‘quvchilar Gavayi orollaridan Galapogos orollarigacha qancha masofa suzib o‘tishgan (Eslatma: meridianlarda 1° yoy uzunligi-111.1 km, ekvatororda 1 yoy uzunligi-111.3 km. ga teng).

Topshiriqning echimi : O‘quvchilar dastlab 20° sh.k. dan ekvatorgacha suzib borishadi. Bu masofa $20 * 111.1 = 2222$ km, so‘ngra 155° g‘.u. dan 92° g.u.gacha suzib keladi va bu masofa $155^{\circ} - 92^{\circ} = 63^{\circ} * 111.3 = 7012$ km, jami masofa qo‘shiladi:

$$2222 + 7012 = \mathbf{9234 \text{ km}}$$

3-Topshiriq:

O‘quvchilar Gavayi orolidan 2020 yil 15-iyunda soat 12-00 da yo‘lga chiqishdi. Agar yaxtaning o‘rtacha tezligi soatiga 62 km. ga teng bo‘lsa, o‘quvchilar Galapogos orollariga qaysi sanada va soat nechada etib keladi .

Topshiriqning echimi : O‘quvchilar suzib o‘tgan masofani yaxtaning tezligiga bo‘lamiz. $9234 : 62 = 149$ soat . Demak o‘quvchilar masofani 149 soatda suzib o‘tishgan. Bir sutka 24 soatni tashkil etgan holda 149 soatni 24 ga bo‘lamiz. Bunda 6 sutka va 5 soat chiqadi. Bu vaqtini 15-iyun soat 12-00 ga qo‘shamiz. Javob: 21 iyun soat 17-00 bo‘ladi.

4-Topshiriq:

O‘quvchilar xarita bilan suzishib, orollardan biriga yaqinlashadi. Orollar atrofini qora toshlardan iborat qoyalar o‘rab olgan edi. Orolga yaqin borishi va yaxtaning tagini urib olmaslik uchun o‘quvchilar nimani bilishi talab etilardi. Javoblardagi harflarni taxlab kalit so‘z yasang.

1. a,f,v,r,t,r,e,a
2. e,n,m,a,d,a,r
3. o‘,b,i,g‘,z
4. a,r,q,y,i

Topshiriqning echimi : Bu erda o‘quvchilar 1-chi javobdagи **farvater** so‘zini topish kerak edi (eslatma: farvater- chuqur suv osti yo‘li).

5-Topshiriq:

O‘quvchilar yaxtadan orolga tushib olgach, xarita bo‘ylab xazinani izlay boshlaydilar. Dastlab o‘quvchilar shimolga, so‘ngra shimoli –sharqqa va oxiri janubi-sharqiy yo‘nalish bilan yurib xazina ko‘milgan joyga boradilar va XVII asrga tegishli bo‘lgan oltin tangalar ko‘milgan sandiqchani topishadilar. O‘quvchilar yaxtaga qaytib kelishlari uchun qaysi azimut bilan yurishlari kerak bo‘ladi.

1. $360^{\circ}, 135^{\circ}, 270^{\circ}$
2. $180^{\circ}, 225^{\circ}, 315^{\circ}$
3. $315^{\circ}, 225^{\circ}, 180^{\circ}$
4. $90^{\circ}, 225^{\circ}, 180^{\circ}$

Topshiriqning echimi : Bu yerda o‘quvchilar 3-chi javob yani $315^{\circ}, 225^{\circ}, 180^{\circ}$ azimutlari bilan yaxtaga qaytishadi. Sababi to‘g‘ri orientirlash bilan teskari orientirlash oralig‘i 180° ga teng bo‘ladi .